

# Vokal ijrochiligidagi ovoz xususiyatlari, ta'limda zamonaviy yondashuvlar

Sadoqat Samatovna Ashurova  
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada an'anaviy xonandalikda ovoz xususiyatlari hamda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanishning unumli jihatlari haqida so'z yurutiladi. O'zbek vokal san'ati tarixi ham turkiy xalqlar madaniyatining uzoq tarixiga borib taqaladi. Ma'lum ma'noda vokal san'atining din va jamiyat e'tiqodi bilan bog'liqligi o'zbek vokal tarixi jarayonlariga ham tegishli. Vokal ijrochiligi musiqa san'ati turi sifatida ikki - akademik va xalq ijrochiligi yo'nalishlarida rivojlanib kelmoqda. Kuylash usuli, tovush hosil qilish xarakteri, ovozlarning tembr turlanishi, ijrochiligini texnikasi usullari va ifodalash vositalarining imkoniyatlari qarab vokal ijrochiligi uslubi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** vokal ijrochiligi, usul, ovoz sozlash, ovozni yo'lga qo'yish, ovoz apparati, nafas, registrlar, tembr, jarang kuchi, ovoz imkoniyatlari, diapazon

## Sound characteristics in vocal performance, modern approaches in education

Sadoqat Samatovna Ashurova  
Bukhara Institute of Psychology and Foreign Languages

**Abstract:** This article talks about voice characteristics in traditional singing and productive aspects of effective use of innovative technologies and innovative approaches in the educational process. The history of Uzbek vocal art goes back to the long history of the culture of the Turkic peoples. In a certain sense, the connection of vocal art with religion and society's beliefs also applies to the processes of Uzbek vocal history. Vocal performance as a type of musical art is developing in two directions - academic and folk performance. The style of vocal performance is determined depending on the method of singing, the character of sound generation, the timbre of voices, methods of performance techniques and the possibilities of means of expression.

**Keywords:** vocal performance, method, sound tuning, setting up the sound, voice apparatus, breath, registers, timbre, loudness, sound capabilities, range

Barchamizga ma'lumki, musiqa san'ati, vokal san'ati, vokal ijrochiligi asrlar osha sayqal topib, milliy mumtozlik darajasiga ko'tarildi va bashariyat tomonidan e'tirof etildi.

Birinchi prezidentimiz I.Karimovning so'zlariga ko'ra "Madaniy jamoatchiligidan, avvalambor musiqashunos olimlar, ustoz san'atkorlar, kompozitorlar, yozuvchi va jurnalistlar, ko'p sonli san'at ixlosmandlari bunday masalalar yuzasidan o'z fikrini ochiq bildirib borishi, shu tariqa yoshlarimizga to'g'ri tarbiya berishimiz ham qarz, ham farz, deb o'ylayman[1,28-45].

Vokal ijrochiligi odamlarda chuqur estetik zavq uyg'otibgina qolmay, insoniy va ma'naviy saviyasini, badiiy didini oshirishga yordam beradi. Vokal janri xonandalik jozibasi bilan hayratga soluvchi o'ziga xos san'atdir. U insonning eng yaxshi histuyg'ularini uyg'otib, hayajonlantirish, qiziqtirish xususiyatiga ega, shu sababdan vokal ijrochilar bilan bir qatorda tinglovchilarning ham badiiy - g'oyaviy tarbiyalanishidagi roli juda katta.

O'zbek vokal san'ati tarixi ham turkiy xalqlar madaniyatining uzoq tarixiga borib taqaladi. Ma'lum ma'noda vokal san'atining din va jamiyat e'tiqodi bilan bog'liqligi o'zbek vokal tarixi jarayonlariga ham tegishli. Xususan maqom tizimining bevosita tasavvuf falsafasidan kelib chiqishi mashhur mutasavviflar - Abu Homid G'azzoliy, Jaloliddin Rumi, Farididdin Attor, Ahmad Yassaviy, So'fi Olloyor, Sulaymon Boqirg'oniy, Mashrablar ilmiy-amaliy faoliyatida o'z aksini topadi. Maqom esa so'fiyning Alloh tomon intilish yo'lidagi qalb va zikr maromini o'zida aks ettiradi. Demak, vokal san'ati bir qadar murakkabroq va tizimliroq tarzda sharq xalqlari tarixida ham mavjud bo'lgan. Ayni jarayonlar amaliy manbalar asosida Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abdulqodir Marog'iy, Darvesh Ali Changiy, Komil Xorazmiy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniylar tomonidan nazariy o'rganilgan va targ'ib etilgan. O'zbek vokal ijrochiligining rivojiga Halima Nosirova, Saodat Qobulova, Sattor Yarashev, Ergash Yo'ldoshev, Abdulla Bozorov, Faxriddin Umarov, Orif Alimahsumov, Muyassar Razzoqova, Ismoil Jalilov kabi mashhur san'atkorlar katta hissa qo'shgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ularning ijrochilik faoliyatida esa ham yevropa, ham milliy vokal san'ati uyg'unlashganini ko'rish mumkin.

Vokal ijrochiligi musiqa san'ati turi sifatida ikki - akademik va xalq ijrochiligi yo'nalishlarida rivojlanib kelmoqda. Kuylash usuli, tovush hosil qilish xarakteri, ovozlarning tembr turlanishi, ijrochilagini texnikasi usullari va ifodalash vositalarining imkoniyatlariga qarab vokal ijrochiligi uslubi aniqlanadi.

Ma'lumki, vokal ijrochiligidagi ovoz muhim ahamiyat kasb etadi, ular xilma - xil diapozonga ega bo'ladi. Vokal darslariga qatnashuvchilar ovozining diapozoni aksari bir yoki ikki oktava (tenor yoki bariton) bo'lganida o'qituvchining ishi birmuncha engillashgan bo'ladi. Biroq bunda ham talabalar ovozida bir xillik xavfi tug'ilib qoladi.

Vokalchi talabalarning ko‘p ovozli repertuaridan foydalanish ularga xor qo‘shiqlarini, hatto vokal tantatalarini o‘rgatish imkonini tug‘diradi.

Xonandani tarbiyalash, ya’ni ovozini yo‘lga qo‘yish va uni professional kuylashga o‘rgatish kuchli bilimni hamda keng qamrovli kompleks davomiy ishlarni o‘z ichiga oladi. Tabiatan inson ovozi qanchalik to‘g‘ri qo‘yilgan bo‘lmasisin unda professional vokal ko‘nikmalarini hosil qilish zarurdir.

Vokal ijrochisi yuksak ijrochilik sifatlariga ega bo‘lishi zarur. Ijrochilar ovozining xususiyatlarini yaxshi bilish musiqa rahbari uchun muvoffaqiyat garovidir. Ijrochi (vocalist) ovozi fiziologik tuzilishiga qarab bolalar, ayollar, erkaklar ovoziga bo‘linadi.

“Erkaklar ovozi ham, ayollar ovozi ham bir necha turlarga bo‘linadi. Erkaklarda: bas, bariton, tenor va ular yana bir necha turlarga bo‘linadilar. Ayollarda esa asosan ikkita ovoz - soprano va alt. Ayniqsa soprano ovozi bir necha turlarga: koloratura soprano; lirika - koloratura soprano; liriko - dramatik; dramatik, metsso - sopranolarga bo‘linadi.

Alt - kontralto - ko‘proq ko‘krak qafasi tembri bilan kuylaydigan ayollar ovoz sohibalariga tegishlidir. Har doim ham ovozlar klassifikatsiyasi to‘g‘ri chiqmasligi mumkin. Ba’zida insonlarda shunday xarakterli ovozlar uchraydiki, ikkilanishlar uzoq vaqtgacha davom etadi.” Har bir ovoz egasining o‘ziga xos ist’edodi, alohida jihatlari mavjud. Faqatgina uni o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri tarbiyalab, to‘g‘ri yo‘naltirilsa mukammal ovoz egasiga aylanadi.

O‘qituvchi o‘z vokal darslarida o‘quvchiga eng qulay muhitni yaratishga harakat qilishi kerak. Agar o‘qituvchi darsning dastlabki bosqichlaridanoq o‘quvchi ijrosiga nisbatan darhol ovozni shakllantirish texnikasi borasida e’tiroz bildira boshlasa, ijroda unga xos bo‘lgan iqtidorning ijobiy fazilatlarini ko‘rsata olmaydi. Ko‘pchilik ilk darsini nafas olish, halqum ishi yoki tilni qo‘yishdan boshlaydi, lekin ishda samaradorlikka erishish uchun materialni borisha qabul qilib qaytanga ovozni sifatli jaranglashi va shakllanishiga xalaqit berayotgan nuqsonni aniqlashdan boshlash kerak degan fikrni o‘rtaga tashlaymiz. Agar talabaning diqqati bir vaqtning “o‘zida ko‘plab mulohazalar bilan yuklangan bo‘lsa, u birorta ham kamchilikni tuzatmaydi va mohiyatan hech narsani o‘rganmaydi.

Ovozning sifatlarini tarbiyalashda kerakli tovush yoki mushak texnikasini ko‘rsatish va talaba tomonidan nota matnini nusxalash katta rol o‘ynaydi. Buning uchun o‘qituvchining o‘zi ovozni yaxshi bilishi, talaba esa taqlid qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Mushak texnikasini namoyish qilish qo‘sish kuylashda vokal apparati ishini chuqur bilishga asoslangan bo‘lishi kerak, chunki u vokal apparatining ma’lum qismlarining haqiqiy holatiga ta’sir qiladi. Barcha hollarda talabaning individualligini hisobga olish kerak va pedagogik usullarning to‘g‘riligi mezoni uning ovozi bo‘lishi kerak. Og‘zaki tushuntirishlar ovoz shakllanishi haqida to‘g‘ri g‘oyalarni rivojlantirishning eng kuchli omilidir. O‘qituvchi uning o‘quvchisi nimaga

erishmoqchi ekanligini ko'rsatishi va aytib bera olishi, ko'p sonli mushak texnikasini egallashi va Darslar uchun mos musiqiy materialni bilish va tanlay olish kerak. Vokal darslarining samaradorligi birinchi navbatda o'qituvchi shaxsining xususiyatlariga, uning kasbiy bilimiga, pedagogik mahoratiga bog'liq.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, mustaqillikka erishilgandan so'ng unitilib borayotgan milliy qadriyatlarimiz, milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizga alohida e'tibor berila boshlandi. Shu bilan bir qatorda milliy san'atimizga bo'lgan e'tibor ham kuchaydi.

Ayniqsa, hozirgi davrga kelib, yoshlari o'rtasida vokal san'atida mumtoz maqom ijrochiligi bilan birga zamonaviy qo'shiqchilik san'atiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Yangi usullarda yoshlari ijod qilib, qo'shiqchilik san'atining rivojiga o'z hissalarini qo'shmoqda. Bu san'at sirlarini puhta egallahsha harakat qilmoqda. Vokal san'atida, uning ijrochiligidagi qo'shiqchining ovozini to'g'ri shakllantirish, to'g'ri yo'naltirish asosiy maqsad hisoblanadi. Vokal ijrochiligidagi eshitish, ovozni yo'lga qo'yish, nafas organlarini o'z maromida ishlatish kabi vokal qoidalari muhim ahamiyatga egadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. D. Malikov. Vokal. Toshkent, 2019.
2. N. Qahhorov. Vokal asoslari. Toshkent, 2008 y.
3. E. Rahimov. Vokal. Toshkent, 2010 y.
4. M. Mirabdullaev. Vokal ijrochiligi. Namangan, 2014 y.
5. I.A. Karimov. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch". Toshkent. "Ma'naviyat". 28-45 bet
6. Хомаковская Н. В. (2017). Современные методы развития вокальных способностей. Санкт-Петербургский образовательный вестник, (1 (5)), 99-118.
7. КБ Холиков. Обученность педагогике к освоению учащихся сложным способам деятельности. Science and Education 5 (2), 445-451
8. КБ Холиков. Обязанности миелина, о левом и правом пороге миелина. Science and Education 5 (2), 33-44
9. КБ Холиков. Эффективное действия сквалан-углеводород тритерпенового ряда и амаранта к заболеваниям рака, опухоли. Science and Education 5 (2), 27-32
10. КБ Холиков. Педагогическое корректирование психологической готовности ребенка к обучению фортепиано в музыкальной школе. Science and Education 4 (7), 332-337
11. КБ Холиков. Защитный уровень мозга при загрузке тренировочных занятиях и музыкального моделирование реальных произведений. Science and Education 4 (7), 269-276

12. КБ Холиков. Прослушка классической музыки и воздействия аксонов к нервной системе психологического и образовательного процесса. *Science and Education* 4 (7), 142-153
13. КБ Холиков. Новые мышление инновационной деятельности по музыкальной культуры в вузах Узбекистана. *Science and Education* 4 (7), 121-129
14. К.Б. Холиков. Отличие музыкальной культуры от музыкального искусства в контексте эстетика. *Science and Education* 3 (5), 1562-1569.
15. КБ Холиков. Модели информационного влияния на музыку управления и противоборства. *Science and Education* 4 (7), 396-401
16. КБ Холиков. Измерение эмоции при разучивании музыки, функция компонентного процессного подхода психологического музыкального развития. *Science and Education* 4 (7), 240-247
17. КБ Холиков. Манера педагогической работы с детьми одарёнными возможностями. *Science and Education* 4 (7), 378-383
18. КБ Холиков. Внимания музыканта и узкое место захвата подавление повторения, сходство многовоксельного паттерна. *Science and Education* 4 (7), 182-188
19. КБ Холиков. Сравнение систематического принципа музыкально психологического формообразования в сложении музыки. *Science and Education* 4 (7), 232-239
20. КБ Холиков. Мозг и музыкальный разум, психологическая подготовка детей и взрослых к восприятию музыки. *Science and Education* 4 (7), 232-239
21. К.Б. Холиков. Музыка как релаксатор в работе мозга и ракурс ресурсов для решения музыкальных задач. *Science and Education*. 3 (3), 1026-1031.
22. КБ Холиков. Характеристика психологического анализа музыкальной формы, измерение ракурса музыкального мозга. *Science and Education* 4 (7), 214-222
23. КБ Холиков. Абстракция в представлении музыкально психологического нейровизуализации человека. *Science and Education* 4 (7), 252-259
24. КБ Холиков. Ответ на систему восприятия музыки и психологическая состояния музыканта. *Science and Education* 4 (7), 289-295
25. КБ Холиков. Проект волевого контроля музыканта и воспроизводимость музыкального произведения. *Science and Education* 4 (7), 189-197
26. КБ Холиков. Психика музыкальной культуры и связь функции головного мозга в музыкальном искусстве. *Science and Education* 4 (7), 260-268
27. КБ Холиков. Внимание и его действие обученному музыканту и оценка воспроизводимости тренировок. *Science and Education* 4 (7), 168-176

28. КБ Холиков. Рост аксонов в развивающемся музыкально психологического мозга в младшем школьном возрасте. *Science and Education* 4 (7), 223-231
29. КБ Холиков. Аксоны и дендриты в развивающейся музыкально психологического мозга. *Science and Education* 4 (7), 159-167
30. КБ Холиков. Фокус внимания и влияние коры височной доли в разучивании музыкального произведения. *Science and Education* 4 (7), 304-311